



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

### JAMOAT TARTIBINI SAQLASHGA JALB QILINADIGAN PATRUL- POST XIZMATI XODIMLARINING XIZMAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (XORIJ TAJRIBASI MISOLIDA)

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi  
mayor*

**Mamadaminov Shamsiddin Faxritdinovich**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimlari hamda unda patrul-post xizmatining tutgan o'rni, shuningdek, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimlarida patrul-post xizmati faoliyatini boshqarishga doir xorij jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Fransiya, Turkiya, Xitoy, Yaponiya kabi davlatlar politsiya xizmatining ilg'or tajribasi ilmiy tahlil qilingan. Mazkur ilg'or xorij tajribasidan kelib chiqqan holda, yurtimizning jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimlarini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash, patrul, post, patrul-post xizmati, saf bo'linmalari.*

**Annotation:** *In this article provides a scientific analysis of the experience of Police Service in the United States of America, France, Turkey, China and Japan including systems of ensuring public order and security, as well as the role of the patrol-post service in it, as well as the management of patrol-post service activities in public order and security systems. Based on advanced foreign experience, proposals have been made to improve the public order and security systems of our country.*

**Keywords:** *maintaining public order, maintaining ensure public safety, patrol, post, patrol-post service, line units.*

Barcha davlatlarda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash muhim masalalardan biri bo'lib, ushbu vazifa bilan shug'ullanuvchi tarkibiy bo'linmalarni boshqarish turli yo'llar va usullar orqali amalga oshiriladi. Ushbu sohada har bir davlat o'ziga xos tajribaga ega bo'lib, ularni o'rganish hamda yurtimizda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimiga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Miromonovich «...bugungi kunda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlashga ma'sul bo'lgan xuquqni muhofaza qiluvchi organlar, shu jumladan Milliy gvardiya bo'linmalari faoliyati samaradorligini oshirish uchun rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini chuqur o'rgangan holda, amaliy faoliyatga yangicha ish uslublari va



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

mexanizmlarini, xususan, raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish vazifasiga alohida e'tibor qaratishimiz lozimdir» [1] deb ta'kidlaganlaridek, bugungi kunda ushbu sohada juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada tadqiqot olib borgan huquqshunos olimlar ham xorij tajribasini o'rganish jamiyatni rivojlantirishning muhim yo'nalishlarini belgilab olish, bashariyatning uzoq tarixiy taraqqiyoti jarayonidagi yanglishuvlar va xato yondashuvlarga qayta yo'l qo'yilishining oldini olish imkonini berishini qolaversa, xorijiy davlatlarning tajribasini sinchkovlik bilan o'rganish va joriy etishda har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozimligini ta'kidlaganlar Zamonaviy huquq- tartibot idoralari tashkil etilgandan beri patrullik qilish, jinoyatchilikning oldini olishning asosiy usuli sifatida foydalanilgan [2].

XIX asrning 70-yillariga kelib, patrullik xizmatini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar bir muncha faollashdi. Buning natijasida patrullik xizmatining samaradorligi ijobiy tomonga o'zgardi, ayniqsa G'arb mamlakatlarida - uning sifati va miqdori oshdi. Qolaversa, G'arb davlatlarining politsiya tizimini o'rgangan tadqiqotchilar, ushbu mamlakatlarda politsiya xizmati turli xil professional tashkilotlar, ya'ni jamoat politsiya kuchlari, xususiy xavfsizlik idoralari, qurolli kuchlar, turli xil nazorat hamda tergov vakolatlariga ega hukumat idoralari tomonidan amalga oshirilsada, ushbu organlarning eng taniqlisi bu - jamoat joylarida piyoda va avtomobillarda patrullik qiladigan jamoat politsiya kuchlari hisoblanishini e'tirof etadilar. Ular fuqarolik hokimiyatining eng ko'zga ko'ringan vakillari bo'lib, odatda politsiya tashkilotlari bilan bog'liq modellarni namoyish etadilar.

Rus olimi A.N. Badmayev ham xorijda patrol xizmatini tashkil qilish va kuchaytirishga katta e'tibor berilishi hamda qoidaga ko'ra, u huquqni muhofaza qiluvchi organlarida asosiy, mustaqil va juda ko'p sonli tuzilma sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Bu esa patrol-post xizmati faoliyatini boshqarish bo'yicha xorijiy davlatlar to'plagan tajribani milliy qonunchiligimiz va uni qo'llash amaliyotiga samarali joriy etish, uni o'rganishda tizimli yondashuvni talab qiladi. Shu sababli, ko'zlangan maqsadga erishish uchun avvalombor xorijiy davlatlar jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimlari va unda patrol-post xizmatining tutgan o'rnini o'rganish maqsadga muvofiqdir [3].

Har bir davlatning jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimi boshqa mamlakatlarnikidan muayyan xususiyati bilan ajralib turadi.

Misol tariqasida Amerika Qo'shma Shtatlari davlatini o'rganadigan bo'lsak - ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha dunyoda



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

o'ziga xos tizim va ilg'or tajribaga ega bo'lgan davlat. Amerika Qo'shma Shtatlari tarixiy rivojlanishi mamlakatda politsiyaning uch bosqichli tizimini shakllantirdi.

Bular: federal, individual va mahalliy darajadagi politsiya organlari bo'lib, ularning orasida mahalliy darajadagi politsiya tizimining asosi, ya'ni eng katta qismi (60 foizi)ni tashkil etadi hamda aholi bilan doimiy bevosita aloqada bo'ladi. Qo'shma Shtatlar politsiya tizimini o'rgangan huquqshunos olim

D.D. Shalyagin - mazkur tizimning Yevropa davlatlari politsiya tizimlaridan asosiy farqini uning «pastdan tepaga» prinsipi asosida tashkil etilganida deb ko'rsatsa.

P.N.Kurlovich davlatning huquqni muhofaza qilish tizimi darajalari o'rtasida ierarxiya va bo'ysunuvchi aloqaning yo'qligi va o'ziga xos murakkabligiga qaramay, uning barcha bo'linmalari muayyan ma'suliyat asosida faoliyat yurituvchi ixtisoslashgan bo'limlar ekanligini ta'kidlaydi [4].

Amerika Qo'shma Shtatlarida huquqni muhofaza qilish tizimi dinamik va texnologik jihatdan rivojlangan bo'lib, fuqarolik jamiyatida demokratik huquq va erkinliklarni amalga oshirish doirasida jamoat tartibini saqlashning zamonaviy konsepsiyasini o'zida aks ettiradi. Mamlakatda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish vazifalari asosan shtatlardagi munitsipal politsiya organlariga yuklatilgan. Mamlakatning federal politsiya organlari esa shtatlar, shahar va okrug politsiyalarini zarur barcha ma'lumotlar bilan ta'minlab boradi hamda davlatda ushbu sohada juda samarali axborot tizimi qaror topgan. Mamlakat politsiya tizimida patrullik qilish politsiyaning ajralmas tarkibiy qismi va asosiy vazifasidir.

Tadqiqotchilar Amerika Qo'shma Shtatlari politsiya patrol xizmatining vazifalari juda murakkab bo'lishiga qaramay, unda xizmat qiluvchi xodimlar politsiyaning eng quyi bo'g'ini sifatida bevosita jamoatchilik bilan hamkorlikda ish olib borishi sababli boshqa politsiya xodimlariga nisbatan aholining muammolarini samarali hal etish imkoniga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Mamlakatda politsiya shaxsiy tarkibining yarmi patrullik xizmati bilan band bo'lib, tizim uchun ajratilgan pul mablag'larining 40 foizi ularga sarflanishi uning politsiya tizimida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi [5].

Amerika Qo'shma Shtatlari politsiya tizimidagi patrol xodimlarini xizmatga jalb etishda vaqt va hududning geografik belgilari hisobga olinadi hamda xizmatni tashkil etishda turli xil axborot-dasturiy tizimlaridan foydalaniladi.

Yevropa davlatlari orasida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida o'ziga xos jihatga ega bo'lgan tizim



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

Fransiyada shakllangan. Fransiya politsiya tizimi Yevropadagi eng qadimgi tizimlardan biridir.

Fransiya politsiya tizimi yuqori darajada markazlashgan bo'lib, milliy politsiya va jandarmeriyadan tarkib topgan. Mamlakatda davlat politsiya tartiboti o'rnatilgan aholi punktlarida politsiya xizmat olib boradi, boshqa barcha hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash uchun jandarmeriya javobgar hisoblanadi.

Shuningdek, davlatda uchinchi politsiya kuchi - Davlat xavfsizlik politsiyasi (Républicaines de Securite) ham mavjud bo'lib, u ommaviy tadbirlar o'tkazilganda va ommaviy tartibsizliklar yuzaga kelganda jamoat tartibini saqlashda ishtirok etuvchi milliy politsiya tarkibidagi harbiy qism hisoblanadi. Jandarmeriyaning eng asosiy vazifalaridan biri - jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bo'lib, bundan tashqari u odamlar va mulklarning xavfsizligini ta'minlaydi, tezkor-qidiruv va jinoyatlarning oldini olish tadbirlarida ishtirok etadi. Qolaversa, hukumat, davlat idoralari va chet el elchixonalari binolarini qo'riqlash vazifasi ham ularning zimmasiga yuklatilgan. Shu bilan birga, mamlakatda ko'chma jandarmeriyalar faoliyati ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashdan iborat. Fransiyada patrullik xizmati patrul bo'linmalari tomonidan olib boriladi va ularning faoliyati asosan aholisi

10 mingdan oshiq bo'lgan shaharlarda tashkil etiladi. Patrul bo'linmalari o'z faoliyatini turlicha, xususan avtopatrul, motopatrul, velopatrul, otliq patrul va piyoda patrul shaklida olib boradi. Politsiya patrul bo'linmalari milliy politsiya xodimlarining 60 foizini tashkil etadi hamda xizmatni olib borish davomida shahar politsiyasiga bo'ysunadi. Mamlakatda patrul xizmati faoliyatini tashkil etilishining rivojlanishi va takomillashtirilib borishiga katta ahamiyat qaratiladi. Fransiya politsiya organlarining ommaviy tadbirlarni o'tkazish davrida jamot tartibi va xavfsizligini ta'minlashdagi rolini o'rgangan tadqiqotchi T.I.Marayev mamlakatda barcha darajadagi ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayonida patrul-post xizmati boshqa organlarga nisbatan yetakchi o'rin tutishini ta'kidlaydi [6].

1) 1852 yilda tashkil etilgan Davlat politsiyasi (Polizia di Stato), u jamoat xavfsizligi politsiyasi (Forze dipubblica sicurezza) deb ham ataladi;

2) 1814 yilda Fransiya jandarmeriyasi modeli asosida tashkil etilgan Karabinier korpusi (Arma (Corpo) dei carabinieri);

3) moliya soqchilar korpusi (Corpo della Guardia) 1907 yilda Karabiniyeriga qo'shimcha ravishda tashkil etilganligini aytib o'tishimiz mumkin.





## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

Osiyoda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash sohasida o'ziga xos tizim hamda tajribaga ega davlat - Turkiyadir. Mamlakat politsiyasi - 1845 yilda tashkil topgan. Hozirda Turkiya politsiyasi respublika Milliy gvardiya vazirligi tizimiga kiradi va uning tarkibida Xavfsizlik bosh direktorati mavjud [7].

Turkiya politsiyasining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- jamoat tartibini saqlash, fuqarolar va ularning mol-mulkini xavfsizligini ta'minlash;

- huquqbuzarlarni aniqlash va javobgarlikka tortish;

- huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish;

- qonun, nizom va hukumat normativ-huquqiy xujjatlarida belgilangan boshqa vazifalarni bajarish.

Bundan tashqari Politsiyaning davlat birligini saqlab qolish va konstitutsiyaviy tartibotni ta'minlash bo'yicha siyosiy vazifalarni bajarish ma'suliyati yuklatilgan. Turkiya politsiya ma'muriy funksiyalarni, ya'ni xavfsizlik choralarni va boshqa organlarga yordam berishni ham amalga oshiradi. Turkiyada ichki xavfsizlik va jamoat tartibini himoya qilish politsiyaning uch tarmog'i tomonidan amalga oshiriladi:

1) shaharlar hududlari uchun mas'ul bo'lgan Turkiya milliy politsiyasining Bosh Direktorati;

2) qishloq joylar uchun mas'ul bo'lgan Jandarmeriya bosh qo'mondonligi;

3) mamlakat qirg'oqlarini himoya qiluvchi Sohil xavfsizlik qo'mondonligi.

Turkiya milliy politsiyasining bosh direktorati markaziy tashkilotga va hududiy bo'linmalarga bo'linadi. Markaziy tashkilot ancha murakkab tuzilishga ega.

Turkiya politsiyasini Bosh direktor boshqaradi. Unga 7 ta departament, shu jumladan:

Ofis, Matbuot va protokol munosabatlari direktorati, razvedka departamenti, maxsus operatsiyalar departamenti, inspeksiyalar departamenti, nazorat organi va politsiya rahbarlarning markazlari bo'ysunadi.

Turkiya ma'muriy jihatdan viloyat, shahar va tumanlarga bo'linadi. Turkiyada 81 ta viloyat politsiya direktorati, ularga birlashtirilgan 751 ta shahar politsiya direktorati, 22 ta chegara o'tish punktlar direktorati, 18 ta erkin zonalarda politsiya uchastkalari va 834 politsiya uchastkalari mavjud. Politsiyaning markaziy tashkiloti Milliy gvardiya vazirligiga, shuningdek, viloyatlarda politsiya rahbarlari viloyat gubernatorlariga va tuman rahbarlariga ham bo'ysunadi [8].

Osiyoda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash sohasida o'ziga xos tizim hamda tajribaga ega davlat - Xitoy. Mamlakat politsiyasi - 1950 yilda tashkil etilgan



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

Jamoat xavfsizligi vazirligi markazlashgan va markazlashmagan tizimlarga xos xususiyatlarni o'ziga birlashtirgan gibridd modelga ega.

Turli xil politsiya xizmatlarini o'z ichiga qamrab olgan va murakkab tuzilmaga ega bo'lgan Xitoy xalq politsiyasi o'z tarkibiga:

jamoat xavfsizligi politsiyasi; kriminal politsiya; temir yo'l politsiyasi; yo'l harakatini nazorat qilish politsiyasi; qamoqxonalar politsiyasi; daryo va dengiz politsiyasi; o'rmonlarni himoya qilish politsiyasi; bojxona politsiyasi; havo politsiyalari jamlagan.

Mamlakatda jamoat tartibini va xavfsizligini ta'minlash vazifasi vazirlikning jamoat xavfsizligi politsiyasi zimmasiga yuklatilgan [9].

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda joylarda tashkil etilgan Jamoat xavfsizligini ta'minlash statsionar postlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, u bu borada mamlakatdagi boshqa politsiya idoralari qaraganda kengroq vakolatlarga ega. Postlar jamiyat hayotining barcha jabhalarini tartibga solishda ishtirok etadi hamda mahalliy hokimiyat organlari va prokurorlar tomonidan nazorat qilinadi.

Qishloq joylarida mazkur postlarda boshliq, uning o'rinbosari, kichik ma'muriy xodimlar va kichik politsiya xodimlari xizmat olib boradi. Shahar joylari esa ularning tarkibida boshliq, uning o'rinbosaridan tashqari ma'muriy xodimlar va 7 tadan 18 tagacha bo'lgan patrul xodimlari ish olib boradi.

Osiyoda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash sohasida yana bir o'ziga xos tizim hamda tajribaga ega davlat - Yaponiya. Yaponiyada jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash politsiyaning quyi bo'g'inlari - politsiya post va punktlari tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatda jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish politsiya faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilishini yaxshi tushungan Yaponiya hukumati aholi turar joylarida politsiya post (Koban) va punktlarining faoliyatini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratgan.

Yaponiyada politsiya post va punktlarida xizmat olib boruvchi patrul-post xizmati xodimlari o'zlariga birlashtirilgan hududlarda patrullik qilishda doimiy ravishda har bir oila, korxonalar, muassasa va tashkilot bilan ish olib boradilar.

Xizmat davomida patrul-post xizmati xodimlari aholi o'rtasida profilaktik suhbatlar o'tkazib, ularni kerakli axborot bilan ta'minlaydilar, shuningdek jamoatchilikning politsiya faoliyatiga doir fikrini o'rganib boradilar. Mamlakatda jami hibsga olingan huquqbuzarlarning o'rtacha 65 foizi patrul-post xizmati xodimlarining hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlaydi [10].

Yuqoridagi ilmiy tahlillar Milliy gvardiya organlari jamoat tartibini saqlash xizmatining politsiya tizimi qaror topgan mamlakatlarda ham ma'muriy



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda o'ziga xos o'ringa ega ekanligini yaqqol ko'rsatdi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki: aholi turar joylarida, shuningdek, jamoat joylarida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan shug'ullanuvchi tizimlarning ilg'or xorij tajribasini Milliy gvardiya organlari, xususan patrul-post xizmati faoliyatini tashkil etish va boshqarish amaliyotiga:

birinchidan, Milliy gvardiya organlari, shu jumladan patrul-post xizmati faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblangan aholiga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish funksiyasini kuchaytirish va shu orqali Milliy gvardiya organlarini aholiga yanada yaqinlashishi va ularning ishonchiga kirish;

ikkinchidan, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashni zarur axborotlar bilan ta'minlash, hududdagi kriminogen vaziyatdan doimiy xabardor bo'lib borish, huquqbuzarlik faktlari haqida o'z vaqtida xabardor bo'lib borish va sodir bo'lgan har qanday salbiy voqelikka o'z vaqtida ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarni beruvchi axborot texnologiyalarini joriy etish va moddiy-texnikaviy bazani yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash hamda amalga oshirish;

uchinchidan, Milliy gvardiya organlari faoliyatini bevosita tartibga soluvchi qonunlar va maxsus qonunosti normativ- huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amaliyotga joriy etish;

to'rtinchidan, Milliy gvardiya organlari xodimlari, shu jumladan patrul-post xizmati xodimlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasini kuchaytirish yo'nalishlarida joriy etish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси ички ишлар органлари ходимларига йўлланган байрам табриги (Mirziyoev Sh.M. Congratulations to the staff of internal affairs bodies of the Republic of Uzbekistan). <https://president.uz/uz/lists/view/3913>

2. Полиция зарубежных стран: система организации и опыт профессиональной подготовки кадров / A.S. Yakubov, S.V. Asyamov, A.A. Tadjiev i drug. - T., 2010. - S.417. (The system of organization and experience of professional training of personnel A. S. Yakubov, S. V. Asyamov, A. A. Tajiev and etc. - T., 2010. - P.417.).

3. Бадмаев А.Н. Основные направления деятельности милиции общественной безопасности: службы участковых уполномоченных милиции,



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

патрульно-постовой службы милиции и дорожно-патрульной службы Государственной инспекции безопасности дорожного движения:

Avtoref. dis...kan. yurid. nauk. – Chelyabinsk., 2006. – S.23 (Badmaev A.N. The main activities of the Police of Public Security: Services of the Police Authorized Police, Patrol Security Service and the Road-Patrol Service of the State road safety Inspectorate: Author. dis ... Cand. in law sciences - Chelyabinsk., 2006. - P.23).

4. Kurlovich P.N. Politsiya v pravooxranitelnoy sisteme SShA (Kurlovich P.N. Police in the USA law enforcement system). <http://docplae.ru/40343910-P-n-kurlovich-kandidat-filosofskih-nauk-kyui-mvd-rossii-policiya-vravooxranitelnoy-sisteme-ssha.html>.

5. Kvashis V.Ye. Osnovnye tendensii prestupnosti v SShA // Nauchnyy portal MVD Rossii. – 2012. – № 1. – S. 53 (Kwashis V.E. Major crime trends in the United States of America // Scientific portal of the Ministry of Internal Affairs of Russia. - 2012. - № 1. - P. 53).

6. Мараев Т.И. Французские полицейские органы и их рол в обеспечении охраны общественного порядка и безопасности при проведении крупных спортивных мероприятий // Вестник Московского университета МВД России. – 2014. – № 12. – С. 178-182 (Maraev T.I. French police bodies and their role in ensuring public order protection and security during major sporting events // Bulletin of Moscow University of the Ministry of Internal affairs of Russia. - 2014. - № 12. - P. 178-182.).

7. Cengiz Y. Türkiye’de devrie hizmetleri ile suç ilişkisinin incelenmesi: gölbaşı örneği // Güvenlik Bilimleri Dergisi. Mayıs 2015, – 4(1), – S. 21-53 (Cengiz Y. examination of the relationship between crime patrol services in Turkey: gölbaşı example // Journal of Safety Science. May 2015 - 4 (1), - R. 21-53.).

8. <https://xabar.uz/i37>

9. Маёров В.И., Дунаева О.Н. Правовые основы деятельности полиции по обеспечению безопасности участников дорожного движения в китайской народной Республике // Вестник Омской юридической академии. – 2018. – № 4. – С. 480-486 (Majorov V.I., Dunaeva O.N. Legal framework for the police to ensure the safety of road users in the People's Republic of China // Bulletin of the Omsk Law Academy. - 2018. - № 4. - P. 480-486).

10. Квашиш В.Е. Полиция Японии: организатсия и эффективность // Общество и право. – 2018. – № 2 (64). – С. 9-14 (Kwashis V.Э. Japan Police: Organization and Efficiency // Society and Law. - 2018. - № 2 (64). – P. 9-14.).